

## SULAYMON BOQIRG'ONiy ILMiy-TA'LIMiy FAOLIYATI VA IJODIY MEROSI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20180724>

**Fayziyeva Dilorom Shabonovna**

*TOSHDO'TAU 3-kurs tayanch doktoranti*

### **Annotatsiya**

Maqolada tasavvuf adabiyotining yirik namoyondasi Sulaymon Boqirg'oniyning hayot va ijod yo'li, Boqirg'oniyning ijodining o'rganilishi, uning din va tasavvuf, ishq va axloqdan saboq beruvchi hikmatlari bilan bir qatorda "Boqirg'on kitobi" haqida gap boradi. S.Boqirg'oniyning o'zbek adabiyoti tarixida va tasavvuf ta'limotida tutgan o'rni xususida fikr yuritiladi.

### **Kalit so'zlar**

Sulaymon Boqirg'oniyning, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, "Hakim ota risolasi", Shayx shoir, Qul Sulaymon, Hakim Sulaymon, Hakim ota, so'fiyona she'rlar, "Boqirg'on kitobi", Qur'oniyning va tasavvufiy g'oyalari.

### **Аннотация**

В статье рассказывается о жизни и творческом пути Сулеймана Бакиргани, крупного представителя суфийской литературы, изучении творчества Бакиргани, его мудрости, дающей уроки о религии и мистике, любви и нравственности, а также о «Книге Бакиргани». Обсуждается роль С. Бакиргани в истории узбекской литературы и мистики.

### **Ключевые слова и выражения**

Сулейман Бакиргани, Ахмед Ясави, Алишер Навои, "трактат Хакима Ота", Шейх-поэт, Кул Сулейман, Хаким Сулейман, Хаким Ота, суфийские стихи, "Книга Бакиргани", Коран и мистические идеи.

### **Abstract**

The article talks about the life and creative path of Suleyman Bakirgani, a major representative of Sufism literature, the study of Bakirgani's work, his wisdom that teaches lessons about religion and mysticism, love and morality, as well as the "Book of Bakirgani". The role of S. Bakirghani in the history of Uzbek literature and mysticism is discussed.

### **Key words and phrases**

Suleyman Bakyrqani, Ahmad Yasawi, Alisher Navoi, "treatise of Hakim Ota", sheikh-poet, Kul Suleiman, Hakim Suleiman, Hakim Ota, Sufi poems, The "Book of Bakyrqan", The Quran and mystical ideas.

Mustaqillikka erishgan yilimizdan boshlab milliy qadriyatlarimizga, otabobolarimiz merosiga alohida e'tibor va diqqat qaratila boshlandi. Natijada ko'pgina avliyo va allomalarimizning boy madaniy merosi qaytadan tiklandi va asarlari nashr etildi. Shunday ulug' zotlardan biri Xoja Ahmad Yassaviyning uchinchi xalifasi, yassaviya tariqatining yetuk namoyandasi, o'z fazilatlarini bilan "Hakim" unvoniga sazovor bo'lgan Sulaymon Boqirg'oniy - Hakim otadir. Ma'lumki, Xoja Ahmad Yassaviy (1105-1167) Markaziy Osiyoda o'ziga xos yassaviya (jahriya, sultoniya) tariqati asoschisidir. U asos solgan mazkur tariqat o'z davrida jahonshumul ahamiyatga ega bo'ldi va uning izdoshlari ham bu tariqatni keng yoydi. Aslida silsilat uz-zahab (oltin zanjir) halqasi vakili Xoja Yusuf Hamadoniyning shogirdlaridan biri bo'lgan va o'zi ham xojagon silsilasi vakili hisoblangan Ahmad Yassaviy o'z tariqatini ustoz Yusuf Hamadoniy va jahriy tariqatlar asosida yuzaga keltirgan. Uning ta'sirida bu tariqat ixlosmandlari shimolda Qozongacha, G'arbda Bolqon Yarim Oroligacha yetib bordi. Ahmad Yassaviy o'z ona tilini birinchi bo'lib tariqat tili maqomiga ko'tardi, "Devoni hikmat" dagi har bir so'z va har bir ibora islom haqiqatlari bilan sug'orildi, din-u diyonat yo'lida xizmat qildi. Turkiy xalqlar orasida Hakim ota nomi bilan shuhrat qozongan Sulaymon Boqirg'oniy Xorazmning Boqirg'on qishlog'ida dunyoga kelgan. Sulaymon Boqirg'oniy tasavvufning yirik namoyandasi bo'lish bilan birga hassos shoir hamdir. Ahmad Yassaviy tariqatining davomchisi. Sulaymon Boqirg'oniy (taxminan XII asr) - Movarounnahr va Turkiston zaminining buyuk mutasavvifi, adibi va ma'rifatparvar siymolaridan biridir. Uning hayoti va ijodi o'rta asrlar musulmon Sharqining diniy-ma'rifiy, axloqiy-falsafiy hamda adabiy tafakkuri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ayniqsa, Yassaviy tariqatining rivojida muhim o'rin tutadi. Tarixiy manbalarda "Hakim ota" nomi bilan ham mashhur bo'lgan Sulaymon Boqirg'oniy, Ahmad Yassaviyning eng yaqin shogirdlaridan biri sifatida tanilgan. Uning asarlari turkiy xalqlar o'rtasida keng tarqalgan, xalq tili va ruhiyatiga yaqin bo'lganligi bois, uzoq asrlar davomida og'zaki va yozma shaklda yashab kelgan.

Sulaymon Boqirg'oniy ijodining o'ziga xosligi shundaki, u diniy g'oyalarni xalq tushunchasiga mos ravishda, yengil, ravon tilda ifoda qilgan. Ayniqsa, "Boqirg'on kitobi" deb nom olgan asari orqali xalq orasida axloqiy tarbiya, diniy-ma'rifiy tafakkur va ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qilgan. Bu asar xalq

orasida o'qilgan, yod olingan va tarqatilgan bo'lib, o'z davrida "xalq kitobi" maqomini egallagan. Bu holat o'z navbatida Sulaymon Boqirg'oniyning nafaqat shoir yoki mutasavvif, balki xalq orasida murshid, muallim sifatida faoliyat yuritganligini ko'rsatadi.

Sulaymon Boqirg'oniyni shaxsiyati va ijodini o'rganish – o'rta asrlar Markaziy Osiyo madaniy merosini, tasavvufiy dunyoqarashini, diniy-ma'rifiy faoliyatini anglashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Zero, u yaratgan asarlar keyingi asrlardagi ko'plab adabiy va diniy yo'nalishdagi ijodkorlarga manba bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, Sulaymon Boqirg'oniyni haqida mavjud tarixiy manbalar, jumladan, tazkiralari, tariqatlar tarixiga oid asarlar va xalq og'zaki ijodi mahsullari – bu buyuk shaxs haqidagi tasavvurni yanada to'ldirib beradi. Uning hayoti, asarlari, shogirdlari va ta'limotining xalq orasida qanchalik chuqur iz qoldirganligi haqida manbalar orqali to'liqroq ma'lumot olish mumkin.

Yassaviylik tariqatining ahkamlari tavhid, shariat va sunnatga mutlaq bog'liqligi bilan e'tiborga molik. Yassaviylikda yuksak maqomlarni egallash uchun murid piri rahnamoligida shariatdagi o'n maqom, tariqatdagi o'n maqom, haqiqatdagi o'n maqom va ma'rifatdagi o'n maqomni bosib o'tishi kerak. Yassaviylik tariqatida murid va pir adablariga jiddiy ahamiyat berilgan, zikrlar jahriy qilingan. Shu bois yassaviylik jahriya tariqati hisoblanadi. Sulaymon Boqirg'oniyni – turkiy tasavvuf she'riyatining jahonga mashhur vakili Xoja Ahmad Yassaviyning iste'dodli shogirdi.

Tariqatda ham, she'riyatda ham Piri Turkiston an'alarining davomchisi Boqirg'oniyni Ahmad Yassaviyni "**mashoyixlar ulug'i**", "**ikki jahon ko'zgusi**" bo'lgan piri komil sifatida ta'riflaydi:

*Yassi suvining orasi, yotur gavhar porasi,  
Mashoyixlar sarasi shayxim Ahmad Yassaviy.  
Qarchig'oni qishlog'an, shunqor, lochin ushlag'on,  
Sonsiz murid boshlag'on, shayxim Ahmad Yassaviy,  
Shariati orasta, tariqati payvasta,  
Haqiqatda shoyista, shayxim Ahmad Yassaviy.*

Boqirg'oniyni Yassaviyning munosib shogirdi bo'lganligini tasdiqlaydigan naql va hikoyatlar ko'p yaratilgani ham tasodifiy emas. Rivoyat qilinishicha, yosh talaba Sulaymon madrasaga qatnaganda, boshqa bolalarga o'xshab "Qur'oni karim"ni yelkasiga osmasdan, ikki kaftida baland ko'tarib qadam bosar, tahsil tugagach, uyiga yetib olguncha madrasaga orqa o'girmas ekan. Bir kun masjid yonida o'tirgan Ahmad Yassaviy bu holni ko'rib, qattiq ta'sirlangan. O'sha kundan e'tiboran Xoja Ahmad Yassaviy "Qur'on" o'qitmoqqa Sulaymonni yoniga olibdi.

“1911-yilda yozilgan Jo’yborzoda qalamiga mansub “**Manoqib**” da aytilishicha, Hakim ota (Hazrat Sulaymon) “Qur’oni karim” ga o’zgacha hurmat ko’rsatib, darsga borayotib “Mus’haf” ni boshi uzra ko’tarib olar ekan. Buni ko’rgan Ahmad Yassaviy hazratlari uni shogirdlikka taklif etadi. Hakim ota u zotning qo’lida ta’lim olib, o’n besh yoshida muridlikni qabul qiladi<sup>4</sup>. “**Lamahot min nafahotil quds**” tazkirasida Hakim otaning shariatga oid o’ttiz ming, tariqatga oid o’ttiz ming va haqiqat borasida ham o’ttiz ming hikmat aytganlari bayon qilingan.

*Ma’rifat daryosinda g’avvos bo’lub,  
Muhabbat gavharlarin olg’im kelur.  
Tariqat maydoninda parvoz qilib,  
Ul tubo daraxtig’a qo’ng’im kelur.  
Oshiq bo’lub, daryosig’a cho’msam, botsam,  
Mosivalloh pardasini kechib o’tsam.  
O’zdin kechib muhabbatda sizib oqsam,  
So’fiy bo’lub, hazrat tuba borg’im kelur”.*

Sulaymon Boqirg’oniy tarjimai holiga oid ma’lumotlar juda oz bo’lib, Alisher Navoiyning “Nasoyim-ul muhabbat”, Ali Safiyning “Rashahot”, Mufti Zinda Alining “Samorot ul-mashoyih” tazkiralari, shuningdek, noma’lum mualliflar tomonidan yozilgan va XIX asrda til o’zgarishlariga uchrab bizgacha yetib kelgan “Hakim ota risolasi” shayx-shoir to’g’risida bir qator ma’lumotlar beradi<sup>5</sup>.

Xalq ichida bu buyuk zot haqida juda ko’p ajoyib-u g’aroyib afsona, rivoyatlar tarqalganki, hozirgi kunlarimizda ham hech bo’lmaganda bir-ikkita afsona, rivoyat biladiganlar oramizdan topiladi. Shunday afsona va rivoyatlarning o’n bittasi jamlangan “Hakim ota kitobi” (Qarshi – 199q. Nashrga tayyorlovchilar, so’zboshi va lug’at mualliflari: Eshpo’lat Jabborov, Xo’jamurod Jabborov) taniqli rus sharqshunosi K.G.Zaleman (1849-1916) tayyorlagan 1898 yilda imperatorning fanlar akademiyasi tomonidan qilingan nashri asosida “Nasaf” nashriyotida chop etildi.

Binobarin, u she’riyatda hikoya uslubida qissachilik shaklida ham dadil qalam tebratgan. Undan ancha boy va badiiy jihatdan yetuk adabiy meros qolgan. Falsafiy fikr-mushohadalar, pand-nasihat ham shayx-shoir hikmatlarining qat-qatiga singib ketgan. Ali Safiyning “Rashahot” asarida keltirilishicha, Sulaymon Boqirg’oniy: “Turk mashoyihlarining ulug’laridan tururlar va hikmatlarekim, olar turkiy tili bila darveshlarning muomalalarida aytibdurlar, Turkistonda ma’ruf (ma’lum taniqli) va

<sup>4</sup> Sulaymon Boqirg’oniy Boqirg’on kitobi (Nashrga tayyorlovchilar: I. Haqqulov, S.Rafiddinovlar). Toshkent, 1991-yil.

<sup>5</sup> Ahmad Yassaviy Sulaymon Boqirg’oniy “HIKMATLAR” (Nashrga tayyorlovchi E. Ochilov) Toshkent – “O’zbekiston” – 2013. 229-b.

mashhurdur. Va favoidi anfoslarining (soʻzlar) jumlasida bu masalkim, xalq ehtiromida va vaqt igʻtinom (gʻanimat hisoblash)ida oytubdurlar:

Har kim koʻrsang, Xizr bil,

Har tun koʻrsang, Qadr bil”<sup>6</sup>.

Bu kitobni oʻqir ekansiz, til jihati bilan Xiva xoni va mashhur tarixchi Abulgʻoziy (1603-1664)ning “Shajarayi turk” asarini xotiraga keltiradi. Shunga koʻra xulosa chiqarish mumkinki, bu kitob Xorazm vohasida (balkim Qoʻngʻirotda) taxminan XVI - XVII asrlarda, bizga hozircha nomaʼlum shaxs xattot tomonidan, xalq orasidagi afsona va rivoyatlar jamlanib bitilgan. “Hakim ota kitobi”dagi va xalq orasidagi afsona, rivoyatlarni taqqoslash natijasida shunday xulosaga keldikki, ular mazmun jihatdan deyarli kam farqlanadi, lekin bu bir xil degani emas, kelajakda olimlarimiz tomonidan qiyosiy oʻrganilishi zarur masaladir.

Buyuk vatandoshimizning tarjimai holini baholi qudrat tiklashga saʼyu harakat qilar ekanmiz, aniq maʼlumotlarning kamligi bois, mazkur maqoladagi va xalq orasidagi afsona va rivoyatlarga (ular bir-birini toʻldiradi) murojaat qildik. Bu ilmda mavjud usul, toʻgʻri, afsona va rivoyatda sof tarix aks etmaydi, balki real tarixiy voqealarning aks sadolari, ularning gʻoyasi, tarixiy shaxslar, obrazlar va voqealarning nomlari orqali oʻz ifodasini topadi, faqat sharti shuki, tarixiy maʼlumotlarga solishtirib, har tomonlama sinchiklab oʻrganilib, chuqur tahlil qilinishi kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Alisher Navoiy Mukammal asarlar toʻplami. Toshkent: “Fan” 2001-yil.
2. Ahmad Yassaviy Sulaymon Boqirgʻoniy HIKMATLAR (Nashrga tayyorlovchi Ergash Ochilov) Toshkent - “Oʻzbekiston” - 2013.
3. Faxriddin Ali Safiy. Rashaxot (Nashrga tayyorlovchilar M.Xasaniy, B.Umurzoq).-Toshkent, 2003
4. Sulaymon Boqirgʻoniy Boqirgʻon kitobi (Nashrga tayyorlovchilar: I. Haqqulov, S.Rafiddinovlar).Toshkent, 1991-yil.

<sup>6</sup> Fariddin Ali Safiy. “Rashohot” (Nashrga tayyorlovchilar M.Hasaniy, B.Umurzoq). --Toshkent, 2003. 17-b.